

SULAYMON BOQIRG'ONIY IJODIDA  
QUR'ON OYATLARINING O'RNI*Sharipova Sunbula Ahad qizi*

**Annotatsiya.** Maqolada inson his-tuyg'ulari mahsuli hisoblangan badiiy adabiyot islom madaniyati, go'yalari yoyilishida muhim omillardan biri bo'lganligi, Sulaymon Boqirg'oniyning ijodiy mahorati, she'rlarida "Qur'on" oyatlarining qo'llanilishi, iqtibos she'riy san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari, namunalari, oyatlarni she'rda keltirish usullari haqida ma'lumotlar beriladi. Bu ma'lumotlar Sulaymon Boqirg'oniy she'rлaridan olingan misollar bilan izohlanadi.

**Abstract.** The article provides information about the creative skills of Sulayman Bakirgani, the use of verses of the "Quran" in his poems, the art of quoting poetry and its specific features, examples, and methods of quoting verses in poetry. This information is explained with examples taken from the poems of Sulayman Bakirgani.

**Абстрактный.** В статье представлены сведения о творческом мастерстве Сулеймана Бакиргани, использовании аятов «Корана» в его стихах, искусстве цитирования стихов и его специфических особенностях, примерах и способах цитирования стихов в поэзии. Эта информация поясняется примерами из стихов Сулеймана Бакиргани.

**Kalit so'zlar:** Sulaymon Boqirg'oniy, "Qur'on" oyatlari, iqtibos she'riy san'ati, Hakim ota, murid, Qul Sulaymon.

**Key words:** Sulayman Bakirgani, "Qur'an" verses, poetic art of quotation, Hakim father, murid, Qul Sulayman.

**Ключевые слова:** Сулейман Бакиргани, аяты «Корана», поэтическое искусство цитирования, отец Хаким, мюрид, Куль Сулейман.

Hayoti haqidagi ma'lumotlar turli afsona-yu rivoyatlar bilan qorishib ketgan **Sulaymon Boqirg'oniy** xalq orasida "Hakim ota" nomi bilan mashhurlikka erishgan yetuk mutasavvuflardan edi. U "Shayxul mashoyix" (F. Attor), "Maqomoti oliy va mashhur, karomoti matavoliy va nomahsur", "murid va as'hobi g'oyatsiz" (A. Navoiy) bo'lgan Ahmad Yassaviyga murid tushgan, o'z iqtidori va she'riy iste'dodi bilan pirining e'tiborini qozongan. Sulaymon Boqirg'oniy haqida Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida ma'lumot beradi.

Sulaymon Boqirg'oniy ustozining tariqati qoidalarini yanada chuqurlashtirib keng xalq ommasiga yetkazgan. O'z asarlarida islomni, shariat va tariqat qoidalarini targ'ib qilgan, kishilarni u dunyoni o'ylab yashashga, Allohning karamidan bahramand bo'lishga da'vat etgan:

Na xush bu dunyoda iymon-u Qur'on,  
Ne bo'lg'ay jahonda iymondin ortuq [6: 18].

Ilk turkiy yozma adabiyotimiz namunalari asosan pand-nasihat, ibratomuz, hikmatli mavzularni bayoni asnosida vujudga kelgan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"i shular jumlasidandir. Mazkur adabiy yodgorliklarda an'anaviy turkiy mifologik

unsurlar bilan bir qatorda Qur'on oyatlari va hadislardan parcha keltirish, ya'ni **iqtibos** san'atining faol qo'llanilganligini ko'zatamiz.

Mumtoz adabiyotshunosligimizda she'rda Qur'on va hadis so'zlarining ishlatalishi alohida san'at hisoblangan, ya'ni o'sha bayt yo misrada talmi' san'ati emas, balki boshqa bir mustaqil badiiy san'at – iqtibos san'atidan foydalanganligi qayd qilinadi [1:13].

Sulaymon Boqirg'oni "Qul Sulaymon" taxallusi bilan yassaviyona uslubda sodda, xalqona ohangda she'rlar yozgan. She'rlarida xalqonqona, soda ifoda bayon bilan birga Qur'oni oyatlar, hadislar va turli tasavvufiy istilohlardan ham samarali foydalangan. Boqirg'oni she'rlaridan birida Olloh rizosini tilagan banda, unga salomat, toza qalb bilan borishi lozimligini ta'kidlaydi. Bu qarashini ijodkor "**Shuaro**" surasi 89-oyatini - سَلِيمٌ بِقُلْبٍ أَتَىٰ مَنْ إِلَّا (Illo man atalloha biqalbin salim) Faqat, Allohga salomat (shirkdan holi) qalb bilan kelgan kishi (foyda ko'radi) [5:245] iqtibos keltish bilan ifodalaydi:

Ayshim, hushim, maishatim jumla tonib,  
Bo'lg'aymu man, Yo Rab, seni tilasam man.

**"Illo man atalloha biqalbin salim"** tavfiq tabib,  
Bo'lg'aymuman, Yo Rab, sani tilasam man. [6:19]

Oyatning ma'nosini chuqurroq anglash uchun undan oldingi oyatga murojaat qilish lozim: - بَنُونَ وَلَا مَالَ يَنْفَعُ لَا يَوْمٌ - U kunda (ya'ni qiyomatda) na mol-u davlat va na bola-chaqa (insonga) foyda bermas ("Shu'aro", 88-oyat) [5:245].

Qalb pokligi tasavvufda juda muhimdir. Chunki ilohiy ma'rifat pok qalbdagina jilva qiladi. Pokiza qalbdan boshqa hech narsa qiyomatda foyda bermas ekan. Salomat qalb – imonli, shirk va nifoqdan holi bo'Igan qalbdir. Riyo, hasad, kibr kabi illatlar qalb kasalligi hisoblanadi. Qalb buzilishi bilan barcha a'zolar buzila boshlaydi.

Ilmi bade' bilimdoni Atoulloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" risolasida iqtibos san'ati haqida shunday deyiladi: "Iqtibos mashxur qavlg'a ko'ra Qur'on yo hadisdan bir nimani aning Qur'on yoki hadisdin oling'anig'a ishora bo'limg'an tarzda kalomg'a kiritmakdin iboratdir... Iqtibos lug'atda ilm o'zlashtirmoqdur va o't olmoq ma'nosinda ham keliptur. Atash vajhi birinchi ma'nosig'a ko'ra zohirdur, ikkinchi ma'nosig'a ko'ra Qur'on va hadisni nur va aysh-u surur vositalarin hozirlamoqta o'tqa o'xhatmoqtur va alardin bir nimani kalomg'a aning ziynat-u ravnaqi uchun kiritmakni nur va aysh-u surur vositalarin hosil qilmoq uchun o't olmoqqa o'xhatmoqtur" [2:242-243].

Bu dunyoning ishratidin ingrasam man,

**"Yo ayyuhallazina omanu (v) qu (v) anfusakum"** ma'nisig'a qotlansam man.  
Bo'lg'aymu man, yo Rab, sani tilasam man [6:19].

"Yo ayyuhallazina omanu (v) qu (v) anfusakum" (Ey iymon keltirganlar, o'zingizni mustahkamlang!) jumlesi "ma'nisiga qotlanish", anglash uchun yana Qur'on Karimga murojaat etamiz. "Tahrim" surasi 6-oyati xuddi shunday boshlanadi: Ey mo'minlar! O'zingizni ham oila-a'zolaringizni ham jahannamdan saqlanglar. Uni yoqilg'isi insonlar va toshlardir. Uni "tepasida" qo'pol va qattiqko'l farishtalar bor. Ular Allohnini buyurgan narsaga qarshi ish qilmaydi. Ular o'zlariga nima buyurilsa shuni bajaradi" [5:397]. Boqirg'oni shu tarzda she'rni oyatlar bilan ziynatlaydi. Darhaqiqat,

inson his-tuyg‘ulari va ilhomining mahsuli hisoblangan badiiy adabiyot islom madaniyati, go‘yalari yoyilishida muhim omillardan biri bo‘ldi.

Shoir-u yozuvchilar o‘z nuqtai-nazarlarini bayon etish jarayonida Qur’on va hadisga murojaat qiladilar hamda muvofiq paytlarda tegishli oyat yo hadis matnini aynan keltiradilar. Bu holat, ayniqsa, diniy-mazhabiy hamda falsafiy-tasavvufiy mavzularda bitilgan asarlarda ko‘proq uchraydi [1:13]. Qur’ondan iqtibos keltirish ba’zan bir oyat shaklida, ba’zan so‘z birikmasi orqali oyatga ishora tarzida, ba’zan esa faqat mazmun orqali amalga oshirilgan. Bora-bora Qur’on va hadis ilmini o‘zlashtirmoq shunday bir yuksak pog‘onaga ko‘tarildiki, ma’lum oyat yo hadisning to‘la matni va ma’nosini anglashda ayrim odamlar uchun bir so‘z yoki bir ishora kifoya edi:

Addoi Qul Sulaymon yig‘lar zori,  
**“Fi nori jahannama”** Qur’onda oyat bori  
**“Xolidina fohoh abado”** tavba zori,  
Bo‘lg‘aymu man, yo Rab, sani tilasam man [6:19].

Sulaymon Boqirg‘oniy bir oyatga (“Bayyina” surasi, 6-oyat) ishora etuvchi في  
فِي هَذِهِ خَلْدِينَ (do‘zax olovida) va (Ular unda abadiy qolurlar) جَهَنَّمُ نَارٌ  
qo‘llaydi.: “Albatta, ahli kitob va mushriklardan iborat kofir kimsalar jahannam o‘tida  
bo‘lib, o‘sha joyda mangu qolurlar. Ana o‘shalar xaloyiqning eng yomonidirlar”  
[5:459].

Iqtibos san’ati talablariga muvofiq, agar oyat yo hadis qisman keltirilsa, aynan qaysi oyat yo hadisdan olinganligiga dalolat qiladigan so‘z yo iborani tanlash lozim.

Qo‘rqayurman tomug‘ o‘ti haybatidin,  
Umidim bor “**Ian taraani**” rahmatingdin [5:102].

“Arof” surasining 143-oyati Shayx Alouddin Mansur tomonida quyidagicha tafsir qilingan: “Qachonki Muso (va’dalashgan) vaqtimizda (Tur tog‘iga) kelib, Parvardigori unga (bevosita) so‘zlagach, u: “Parvardigorim, menga (jamolingni) ko‘rsatgin. Senga bir qaray”, dedi. (Alloh) aytidi: “Sen Meni (bu dunyoda) hargiz ko‘rolmaysan. Ammo mana bu tog‘ga boq. (Men unga ko‘rinurman.) Bas, agar u (Men ko‘ringanimda) o‘rnashgan joyida tura olsa, sen ham Meni ko‘rajaksan”. Qachonki, Parvardigori u tog‘ga ko‘ringan edi, uni mayda-mayda qilib tashladi va (bu holni ko‘rgan) Muso hushsiz holda yiqildi. O‘ziga kelganidan keyin esa dedi: “Pok Parvardigor (noo‘rin savol so‘rashdan), O‘zingga tavba qildim. Endi men (Sening naqadar buyuk zot ekaningga) iymon keltiruvchilarning avvali — peshqadamiman” [5:102].

Muso alayhissalomning Tur tog‘idagi suhbatи musulmon sharqi xalqlari orasida juda mashhurdir. Oyatdagи لَن “Терни ли” ya’ni “**Сен Мени (бу дунёда) ҳаргиз кўролмайсан**” kalomi butun boshli qissani yodga soladi va shoir xuddi o‘shanda Muso alayhissalomga qilinganidek rahmatdan umidvor.

Umuman olganda, **Qoraxoniylar davrida** islom dini mintaqamizda anchayin mustahkam o‘rnashgan va aholi hayot tarzining muhim, ajralmas qismiga aylanib ulgurgan edi. Bu davr adabiyotining yana bir qiziqarli jihatи qadimgi turkiy mifologiya va islomiy tafakkurning parallel holda uch rashidir. Yuqorida ayrim parchalarini ko‘rib o‘tganimiz she’rda Sulaymon Boqirg‘oniyining dunyoga, zamona ahliga va eng asosiysi o‘z-o‘ziga, munosabatini bevosita Ollohga murojaat bilan namoyon etadi.

Shuning uchun ham she'r o'quvchida xuddi munojot uslubida yozilgandek taassurot uyg'otadi. Garchi an'anaviy she'r o'lchovlari: vazn, qofiya kabi elemetlar mukammallik kasb etmagan bo'lsa-da, she'rda lirik kechinma dinamikasi, tuy'gulardagi tug'yon, ruhiy holat ifodasi yuqori darajada ifodalangan. Biz yuqorida Sulaymon Boqirg'oniy hayoti haqida ma'lumotlar juda kam saqlanib qolganligini aytib o'tgan edik, lekin eng asosiy va ishonchli ma'lumotni uning ijod na'munalaridan olsak bo'ladi. Ikki-uch o'rinda keltirganimiz she'riy parchalarning o'ziyoq Sulaymon Boqirg'oniyning dunyoqarashi, ruhiy olami haqida olam taassurotlarni beradi.

### ADABIYOTLAR:

1. Davlatov O. Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarning badiiy talqini. (Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (doctor of philosophy) ilmiy darajasi uchun tayyorlangan dissertatsiya) – Samarqand: 2017. -160 b.
2. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадое ус-санойи. (Форсчадан Алибек Рустамов таржимаси). –Т.: F.Гулом номидаги Адабиётва санъат нашриёти. 1981.
3. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Т.: Ўқитувчи, 1996. -334 б.
4. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Т.: Маънавият, 1998. -320 б
5. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима / Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992. -672 б.
6. Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби: шеърлар ва достон. (Нашрга тайёрловчилар: И. Ҳаққул ва С. Рафиддинов). – Т.: Ёзувчи, 1991. -80 б.
7. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатлари ва мумтоз қофия. – Т.: Ўқитувчи, 1999.
8. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Сунний ақийдалар. – Т.: Мовароуннахр, 2007. -450 б.
9. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 1-жуз.– Т.: Мовароуннахр, 2005.-666 б.
- 10.Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 2-жуз.– Т.: Мовароуннахр, 2005.-640 б.
- 11.Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 3-жуз.– Т.: Мовароуннахр, 2006.-648 б.